

№ 7428

2026 yil «24» «fevral»

Moliyaviy menejment markaziga

1. Ma'lumki, bankimiz 2025-yilning may oyidan boshlab aholining investitsiya va jamg'arish imkoniyatlarini kengaytirish hamda mamlakatda qimmatbaho metallar bozori faoliyatini rivojlantirish maqsadida 2025 yil 29 maydagi Bank Boshqaruvining 330-sonli qaroriga muvofiq, SQB Mobile ilovasida mijozlarga virtual qimmatbaho metall — oltinni sotish va qayta sotib olish imkoniyatlari joriy qilindi.

2. Mazkur loyiha joriy etilgandan so'ng qisqa vaqt ichida samaradorlikka erishildi. 2026 yil 24 fevral holatiga ko'ra:

- aholi omonatlari qoldig'i 53,4 mlrd so'mga oshdi (arzon resurslar bazasining kengayishi);
- bankning ushbu yo'nalishdan olgan daromadi 3 700,0 mln so'mni tashkil etdi.

Bozor tahlili va aholining talab va takliflaridan kelib chiqib shuningdek, Bank tomonidan aholiga taklif etilayotgan investitsiya qilish va inflyatsiyaning salbiy ta'sirlariga qarshi samarali himoya vositasi bo'lib xizmat qilayotgan Qimmatbaho metall oltinni sotish, qayta sotib olish mahsulot pasportiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi (*Ilovada tegishli departamentlar bilan kelishilgan maxsulotlar pasportlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar taqdim qilinadi*).

Shu munosabat bilan Sizdan,

Qimmatbaho metall oltin(Au) va kumush (Ag)larni ***sotish, qayta sotib olish*** orqali daromad olish imkoniyatini ya'nada oshirish maqsadida, Bank maxsulotlarini boshqarish katta qo'mitasining 2025 yil 19-maydagi 119-sonli qarori bilan tasdiqlangan "*Qimmatbaho metallar*" mahsulot pasportiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni **Bank maxsulotlarini boshqarish qo'mitasi muhokamasiga kiritishingizni;**

Qo'mita qarorida bank tarmoqlariga hamda tegishli departamentlarga quyidagi vazifalarni yukulashingizni so'raymiz:

3. Operatsion departament (Yo.Sultonov) IABS dasturining mazkur qaror bilan tasdiqlangan mahsulot pasporti bo'yicha buxgalteriya amaliyotlarini to'g'ri yuritilishini nazoratga olsin.

4. Raqamli biznes departamenti (T.Rapiev) mazkur qaror bilan tasdiqlangan omonat maxsulotlari shartlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bo'yicha Bankning "SQB Mobile" mobil ilovasining "*Qimmatbaho metallar bilan amaliyotlar*" menyusiga tegishli o'zgartirishlar kiritisin hamda tegishli sozlamalarni yo'lga qo'ysin va mobil ilovada mijozlarga Kumush ***sotish, qayta sotib olish uchun*** hisobvaraqa ochish imkoniyatini yaratsin.

5. Chakana biznes departamenti v.v.b (B.Otamurotov) mazkur qaror bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilayotgan "*Qimmatbaho metallar*" mahsulot pasportini hamda hisobvaraqa ochish talabi yuzasidan tegishli tarkibiy bo'linmalarga yetkazsin.

6. Marketing departamenti (A.Madjidov) "*Qimmatbaho metallar*" mahsulotiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda hisobvaraqa ochish talabi yuzasidan reklama roliklar ishlab chiqib, ommaviy axborot vositalarida aholi e'tiboriga havola etishni tashkil qilsin hamda Bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin va ushbu mahsulot pasporti shartlari bank rasmiy saytiga joylashtirilgan kundan boshlab kuchga kirishi belgilab qo'yilsin.

7. Bank tarmoqlari faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Xasanov) mahsulot pasportini mazmun-mohiyatini Bank tarmoqlaridagi mas'ul xodimlarga yetkazsin va texnik-o'quv mashg'ulotlari tashkil etsin.

8. Barcha tarmoq rahbarlari mazkur mahsulot pasporti to'g'risidagi ma'lumotlarni bankning axborot stendlarida joylashtirilishini va xodimlar e'tiboriga yetkazilishini ta'minlasin.

9. Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilish Biznes bosh direktori v.b. T.Norov zimmasiga yuklatilsin.

**Chakana biznes
departamenti
Departament direktori
v.v.b:**



B.Otamurotov

kelishuvchilar: G.Muradova

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=fK13xW42&id=f976031a-f819-405d-9cbb-e988aea14fbb>